

ABU BAKR SIDDIQ ISLOM OLAMIDAGI ENG BUYUK SAHOBA

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Yunusov Xumoyun

AX23-08 guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada islom xalifalaridan biri Abu Bakr Siddiqning islom dini tarqalishi va payg'ambar sunnatlarini saqlab qolishdagi xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: islom, din, xalifa, adolat, erkinlik, hadis, Qur'on, ilm, ma'rifat sodiqlik.

Islom dini haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo din nima ekanligini bilishimiz zarur.

Din (arabcha: دين – „e'tiqod“, „ishonch“, „itodat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar mifologiya va rituellarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir.¹ Shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituellarga qo'llanadi. Islom diniga yanada chuqurroq kirar ekanmiz „Allohning buyukligi va yagonaligiga, Muhammad (s.a.v) uning payg'ambari ekanligiga iymon keltiramiz“. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) ni yodga olish barobarinda islom olamidagi eng buyuk sahoba, payg'ambarimizning yaqin do'sti bo'lmish Abu Bakir Siddiqni ham yodga olamiz.

Shu o'rinda "sidq" so'ziga qisqacha bo'lsada to'xtalib o'taylik. Tilimizda "sadoqat", "tasdiq" degan so'zlar mavjud. Arab tilidan o'zlashgan mazkur so'zlarning iste'mol ma'nolari o'zbek tilining lug'at kitoblarida to'liq bo'lmasada qaysidir darajada izohlangan. "Sidq" va "siddiq" so'zlari ham shu so'zlar bilan o'zakdosh. Bu so'zlarning o'zak ma'nosi o'zbek tilidagi "to'g'rilik", "rostgo'ylik" tushunchalariga yaqindir.

Qur'oni karimda "sidq" o'zagidan yasalgan so'zlar 158 o'rinda uchraydi.

¹ „Religion – Definition of Religion by Merriam-Webster“. 12-mart 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi.



Mufasssirlarning sharhiga ko'ra, mazkur so'zlar asosan, "haqni so'ylash, haqdan chalg'imaslik, to'g'ri bo'lish" ma'nolariga dalolat qiladi: "Biz senga haq azobni keltirdik. Biz, shak shubhasiz, rostgo'ydirmiz". (Hijr, 64-oyat) "Ayting: "Parvardigorim, meni (qabrimga) haqqi rost (y'ani gunohlarimdan pok bo'lgan holimda) doxil qilgin va (Qiyomat kuni tiriltirganingda ham) haqqi rost (o'ng tomonim bilan) chiqargin..." (Al- isro, 80-oyat).

Abu Bakr Siddiq (to'liq nomi: Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibn Abu Qahhafa ibn Omir; tax. 573-yil — 634-yil 23-avgust) — Muhammad payg'ambar da'vati bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan, dastlabki to'rt xalifadan birinchisi (632—634). Tirikligida jannat bashorati berilgan sahobalarning birinchisi sanaladi. Muhammad payg'ambarning eng yaqin safdoshi, qaynotasi (mo'minlarning onasi Oishaning otasi).

Yirik savdogar. Makkaning quraysh qabilasidan. Islomga kirishdan oldin ismi Abdulka'ba edi. Abdullo ismini Muhammad payg'ambar qo'ygan. Siddiq deb atalishiga sabab shuki, isro va me'roj hodisasini eng birinchi bo'lib tasdiqlagan. Muhammad payg'ambar unga Siddiq, ya'ni iymoni kuchli deb laqab berdi. Makkadan Madinaga hijrat qilishda Muhammad payg'ambarga hamroh, g'orda birga bo'ldi. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya va boshqa joylardagi janglarda ishtirok etdi. Abu Bakr Siddiq obro'li va badavlat kishi bo'lgani uchun ko'p odamlarga yordam qildi, chunonchi, Bilol Habashiyni qullikdan sotib olib, ozod etdi. Muhammad payg'ambar vafotidan keyin birinchi xalifa bo'lib saylandi (632). Arab qabilalarining Madina hokimiyatiga qarshi ko'targan qo'zgonlarini bostirdi. Abu Bakr Siddiq xalifaligi davrida arablar Iroq va Suriyani fath qildi. Abu Bakr Siddiq Madinada vafot etdi va Muhammad payg'ambar yoniga dafn qilindi².

Abu Bakr roziyallohu anhu Rasululloh alayhissalomdan keyin insonlarning eng afzali, u zotning g'ordagi sohiblari, sahobalar sayyidi, ilm va unga amal qilishda barcha musulmonlarga o'rnak bo'ladigan insondirlar. **U zot roziyallohu anhunging nasablari.** Manbaalarda kelishicha, ul zotning nasablari Abu Bakr Abdulloh Ibn Abu Kuhofa Usmon ibn Omir ibn Amr ibn Ka'ab ibn Ma'ad ibn Taym ibn Murra ibn Ka'ab ibn Luay ibn G'olib al Qurayshiy at Taymiydur. Abu Bakr roziyallohu anhunging Rosulloh sollalohu alayhi vassalam bilan nasablari Murrada birlashadi³. Shoshib ketayotgan Ummulxayrdan so'radilar:

² Abu Bakr Siddiq. O'zME. A-harfi^[sayt ishlamaydi]. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

³ <http://islomobod.uz/abu-bakr-roziyallohu-anhunging-dunyo-miqyosida-tutgan-oziga-xos-orinlari/>



- Qayoqqa ketayapsan, ey Ummulxayr?
- Baytulloh ziyoratiga, — javob qildi u.
- Tuqqaningga atigi uch kun bo'ldi, sen damingni olishing kerak.
- Gaping rost...

Ummulxayr nafasini rostlagan bo'ldi va quchog'idagi chaqalog'ini ko'rsatib, so'zida davom etdi:

— Qachonki mana shu bolam yashab ketsagina men xotirjam bo'laman. Shu vaqtgacha ko'rgan farzanddarimning birortasidan «Onajon» degan so'zni eshitmadim. Bu narsa esa meni juda qiynaydi. Ummulxayr peshonasidagi terni artarkan, so'zida davom etdi:

— Hammasini erga topshirdim.

Ummulxayr qadamini tezlatdi. Baytulloh qarshisida to'xtadi-yu, ammo biror qarorga kelolmasdi. Oyog'i yonidagi butga qaradi. Unsiz, sadosiz harakatsiz, jonsiz butlarning qay biriga taʼzim qilishni, ahvolini qay biriga aytishni, qay biridan madad so'rashni

bilmasdi... Biriga borsa ikkinchisi nima deydi?... Birinchisidan yordam so'rasa ikkinchisini g'azabi kelmaydimi?... «Meni yoqtirmadingmi?» deb g'azablansa nima bo'ladi?.. Dadil qadamlar bilan bir chapga bir o'ngga qarab yurdi. Bir muddat o'tgach o'zini qo'lga olib, o'z-o'ziga savol berdi: «Avvalo Kaʼbani tavof qilish afzal emasmi?».

Hajar ul-asvadning qarshisida to'xtadi-da, quchog'idagi chaqaloqni erga qo'yib Kaʼbani

tavof qila boshladi. Baytullohni etti marta aylanib, murojaatini boshladi:

— Allohim, bu bola senga qurbon bo'lsin, uni menga ehson qil.

Shu tarzda xasta ko'ngil bilan ushbu duoni bir necha marta takrorladi. Butlardan birini

tanlab «hojatimni mana shunga arz etdim» deya olmasdi. Agar shu paytda Ummulxayrdan "kimga iltijo qilding",— deb so'rashsa «Baytullohning asl egasi kim bo'lsa o'shanga» — deya olardi, xolos.

Iltijosi qabul bo'lganiga ishonib, uyiga qaytdi. Mushtipar onaning ko'nglidagi duosi faqat shunday bo'lishi mumkin edi. Ummulxayrni bejiz bu ism bilan chaqirishmasdi. Barchaga yaxshilik sog'inuvchi bu ayolning ushbu xislatini yaxshi bilgan atrofdagilari unga «Ummulxayr, ya'ni ezgulik onasi» deb nom qo'yishgandi. Va bu ism unga shunchalik singib ketgan ediki, uning asl ismi «Salma»ligini ba'zilar bilishmasdi ham. Go'zal xulq va ezguliklar onasi bo'lgan bu ayolning hayotini o'rta qo'yib, ming bir azob bilan dunyoga keltirgan farzandlarini, hali qadam bosib



ulgurmasdanoq tuproqqa topshirishi, atrofdagilarini ham qattiq qayg'uga qo'ygandi. So'nggi homilalik davrida Salma xonim bir duoni ko'p takrorlardi: «Ey, fil ashobini mahv etgan va baytullohni saqlagan Zot, sening kuch — qudrating cheksizligiga shubha yo'q... Shu baytulloh haqqi mening jigargo'shamni hayotini saqla va umr ber!». Xokisor, ammo umidvor ona iltijosidagi «niyoz (qurbonlik)» so'zi keyinchalik bolaning laqabiga aylanib ketdi. Otasi Abu Quhofa Usmon bin Amir tomonidan bolaga Abdulloh degan ism qo'yildi. Ummulxayr farzandining dastlab «ummi» ya'ni, «onajon» deganini eshitganida, bu Shirin so'zni qulog'i bilan eshitdimi yoki qalbi bilanmi—anglay olmadi. Demak, u ham ona bo'lishning totli mevalarini terdi, ona ekanligini o'z farzandidan eshitdi. Baytulloh qarshisida qilgan duolari qabul bo'lgan, farzandi yorug' dunyoda sog' — omon yashayotgan edi. Shundan keyin Ummulxayr yana Ka'baga bordi. Baytullohning ko'rinmas sohibiga takror va takror shukronalarini aytdi. Vaqt Abu Quhofaning uyiga bir qiz farzand keltirdi. U Abu Quhofaning boshqa ayoli Hind binti Nufayldan edi. Asosiysi, endi Abu Bakrning singlisi bor edi. Taym qabilasi Abu Quhofaning solih o'g'li borligini bilar, ammo ular o'g'ilningtaqdirini, kelajakning buyuk xalifasi Abu Bakr Siddiq (r.a.) bo'lishini bilishmasdi. Aniqki, g'aybni oldindan bilish haqqi hech kimga nasib etmagandi.⁴ Bolalik va o'smirlik davrida Abu Bakr otasining qo'ylarini olib suvsiz, o'tsiz vodiylarni kezardi. Bir tutam o't topgan qo'zisining ishtaha bilan eyishini sevinch bilan kuzatardi. Dehqonchilikka qulay bo'lmagan Makka vodiylari ko'pgina insonlar qatori Abu Bakrni ham yoshligidan tijorat bilan shug'ullanishga undardi. Yozda Shomga, qishda Yamanga qilinadigan tijorat karvonlariga u ham qo'shildi. O'zidan o'ttiz uch yosh katta bo'lgan otasiga yordam berish imkonini topdi. Tijorat karvonlarining yo'lini to'sgan bosqinchilarga qarshi to'qnashuvlarda bo'ldi. Molini muhofaza qilish uchun qo'lga qilich oldi va kurashdi. Ba'zan ziyofatlarga kirib qolib, ichkilikdan nafratlanadigan birodarlari bilan birga sarmast odamlarni jirkanch harakatlariga guvoh bo'ldi. Makka tashqarisidagi karvonda olib yurilgan ma'budlar yerga qo'yilib, ularga sig'ina boshlashganda ko'nglidan kechganlarini otasiga aytolmasdi. Unga ham butlarga sig'inishni taklif qiluvchilar yo'q emas edi. Bunday paytlarda Abu Bakr shunday javob qilardi: - O'zimni sajdaga majbur qila olmayman. Shunday xolatlarga guvoh bo'ldiki, Makkadan but olib kela olmaganlar tan yig'imiga chiqishardi. Qo'ynilarida bir nechta tosh ko'tarib kelishdi. Ularning bir qismi o'choq uchun ishlatilsa, qolgan qismi esa iloh sifatida ulug'lanardi, unga sajda qilinardi.

⁴ Ahmad Lutfiy Qozonchi. Abu Bakr Siddiq (Rosulullohning g'ordagi birodari). "MOVOROUNNAHR". 2005. – B.3.



Ammo birozdan keyin aynan o'sha but boshqalari kabi o'sha joyda qolib ketardi. Oqibat arablar uchun ilohlik vazifasini bajargan bu toshga keyin hech kim e'tibor bermas, hatto boshqa safar bu erdan o'tayotganlar undan o'choq tani sifatida foydalanishardi. Shu va shunga o'xshash qator holatlar, aqlga sig'maydigan rasm - rusumlar Abu Bakrni ziyraklantirdi. Bir qator jihatdan insonlarni chuqurroq bilish imkonini berdi. Ko'plab xushfe'l insonlarning o'z manfaatlari yo'lida birodarlikdan ham kechishiga, insoniylik qadrini manfaatdan ustun tutishlariga guvoh bo'ldi. Gapini ustun qo'yguvchi toifa kishilari bilan ham tanishdi, qalbi bir pullarni ham tanidi. Hijozning qum tepaliklari, suvsiz vohalari va jazirama quyoshi bo'lganidek, zamonaning maftunkor va o'ziga mahliyo qiluvchi voqealari ham shunday ko'p ediki, u yetarlicha 5 tajribaga ega bo'ldi. Abu Bakr(r.a) pokiza xulqli inson edi. Bu fazilat unga boshqalarni aldash imkonini bermasdi. Ko'ngli, ishiga hiyla aralastiruvchilarni yoqtirmasdi. Halol va samimiy insonlarga doimo eshigi ochiq va qaynoq mehr tuyg'usi bilan yashadi. Ruhida ular bilan bo'lishni xohladi. Bozorma bozor yurdi. Ukkoz, Majanna, Zulmajaz bozorlarida savdo-sotiq qildi. Adabiy suhbatlarni tingladi, she'r -mushoiralariga qatnashdi. Bir guruh insonlar uchun bozorlarda maxsus bayroqlar qoldirilganini, «Falonchi aytgan so'zini buzdi, ahdig vafo qilmadi, qarzini to'lamadi» shaklidagi e'lonlar qilinganiga guvoh bo'ldi. Uning kelgan xulosasi shu bo'ldiki, xulqi buzilmagan, pokiza insonlar ham u kabi o'ylashadi, insoniy fazilatlarini yoqtirishadi. Abu Bakr Abdulmuttalib xonadonidagi Muhammad bin Abdullohni ham bolalik chog'larida uchratdi. O'zidan ikki yosh katga bo'lgan bu birodari bilan doimo shodlik tuyg'ulari ila yodga olinuvchi bir do'stlik tamalini qo'ydi. U ham o'zidek ichkilikni og'ziga olmagan, zinodan umuman yiroq, butlar qarshisida hech qachon bosh egmagan pokiza bir o'spirin edi. Xalq sajda qilib topinuvchi tosh va daraxt parchalariga nisbatan U ham nafrat nazari bilan qarardi. Abu Bakr va Muhammad bin Abdullohni ko'ngil mushtarakligi va fikrlar birligi ipsiz bog'lab turar edi. Ota diydoridan benasib bo'lgan, dastlab bobosi, so'ng amakisi qo'lida ulg'aygan bu o'spirin, umuman oila tarbiyasidan mahrum qolganga o'xshamas, har tomonlama etuk, pokiza va namunali inson ekanligini ko'rsatardi. Tabiiyki, do'stlar vaqti-vaqti bilan fikr almashib, uchrashib turmasa, manfaat yo'lida uzoqlashib ketishi ehtimoldan holi emas, hatto munosabatlari mutlaqo uzilishi mumkin. Aynan manfaat sabab do'stlik o'rnini nafrat egallashi ham haqiqatdan mutlaqo yiroq bo'lgan holat emas. Ammo oradan o'tgan yillar, Abu Bakr bilan uning do'sti o'rtasida bunday janjallar kelib chiqishiga olib kelmadi. Balki yanada samimiy va qalban birlik vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu do'stlik go'yoki ruhlar dunyosida vujudga kelgan va mustahkamlangan edi. Aql, mehr-muhabbat, insoniylik tuyg'ulari



bilan boshlangan yo'llarida yillab birga bo'ldilar. Hamjihatlikda faoliyat olib bordilar⁵. [5]

Abu Bakr (r.a.) anchadan buyon tanigan, sevgan, hurmat qiladigan Abdulmuttalibning nabirasini ko'pdan beri ko'rmagandi. Bu samimiy do'sti yonidaligida qalbi rohatlanar, ko'ngli taskin topardi. Shu o'ylarda Abu Bakr Hadicha binti Huvaylid uyiga keldi do'stini so'radi va uning ham notinchligini, yolg'iz qolish uchun ketganligini bildi. Bunday muhitda yashagan inson faqatgina yolg'izlikda, odamlardan yiroqda taskin topa oladi. Ammo bu chora emasdi. Insonlar orasida, insonlar bilan birga topilmagan huzur tatimaydi. Kishi faqat vaqtincha o'ziga orom beradi, xolos. Keyingi paytda qilgan bir safarida yana din masalasi tilga olinganida bir ruhoni, «najot umidi sen kelgan tuproqlardadir» degandi. Holbuki, Abu Bakr (r.a.) Hijozdagi hayotko'rsatgan iztiroblar bilan dardiga davo qidirmoqda edi. Nihoyat bir kun, ko'ngliga yaqin, sodiq do'stini uchratganda xursandchiligini yashirmadi:

— Do'stim, seni nihoyatda sog'inib ketdim, qaerlarda yuribsan, axir?...

— **«Butun borliqni yaratgan zot bo'lmish Robbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Robbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi» (Alaq surasi. 1-5 oyatlar).**

Do'sti aytgan so'zlar savolining javobi bo'lmasa - da, bema'ni so'zlar ham emas edi.

— So'zlaringni yana bir karra takrorla, ey, Muhammad!..

Takror tingladi. Ruhi to'lqinlangandi, go'yo. Noma'lum, ammo zinhor begona so'zlar emas edi. Bu so'zlarning xamiri go'yo o'zidan olingandi.

— Gaplaring meni maftun qildi, ey, Amin. Ammo sen bularni kimdan eshitding?..

Axir

bular sening so'zlaring emas. Shuncha yildan beri sendan bu kabi so'z eshitmagandim...

Do'sti javob berdi:

— Ey, Abu Bakr, unda so'zlarimni tingla!..

«Ey, (liboslariga) burkanib olgan kishi. Turing-da, (insonlarni oxirat to'g'risida) ogohlantiring. Rabbingizni ulug'lang. Liboslaringizni poklang. Butlardan yiroq bo'ling». (Muddassir surasi 1-5 oyatlar).

⁵ Ahmad Lutfiy Qozonchi. Abu Bakr Siddiq (Rosulullohning g'ordagi birodari). "MOVOROUNNAHR". 2005. – 4-5 B.



— Ey, Abdullohning o'g'li, menga nima bo'lyapti, sening so'zlaring menga qanchalik yoqmasin, men ularning mag'zini tushunolmayapman. Gaplarningning ma'nosini anglat! Abu Bakr (r.a.) Hiro tog'ida avval malakning kelgani, birozdan so'ng vahiy eshitilganini, keyin esa kutishdan so'ng tog'dan qaytarkan, Batni Vodiysida malakning yana ko'ringani, qo'rquvdan titrab uyga kelib yotganda malakning qayta kelib avval o'qigan «**Ey, (liboslariga) burkanib olgan kishi**» — deya boshlanuvchi oyatlarni keltirganini do'sti-birodaridan eshitdi. Abdulmutgalibning nabirasi ushbu so'zlarni so'zlarkan, Abu Bakr (r.a.) ham yolg'ondan yiroq, riyokorlikdan bexabar bu insonni qulog'i bilan emas, balki qalbi bilan tinglardi.

— Shuni bilginki, ey, Abu Bakr, men Allohning erdagi payg'ambariman. Men insonlarga haq dinni tanitish amrini oldim. Sendan Alloh taoloning yagonaligiga ishonishingni va mening Payg'ambarligimni qabul qilishingni so'rayman...

Abu Bakr (r.a.)ning ko'ngli izlaganini topgandi. Ko'p yillardan buyon din, imon, payg'ambarlikka tegishli biror marta ham so'zlamagan, ammo hech kimni aldamagan bu insonning haqiqatdan payg'ambarligiga aslo shubha yo'q edi. Hech ikkilanmasdan Uning qo'lini tutdi va do'stiga murojaat etdi:

— Ey, Amin, men senga ishonaman, sen haqiqatdan ham Alloh yuborgan Payg'ambarisan...

Abu Bakr (r.a.) hech ikkilanmadi. Sababi uzoq yillardan buyon bilgan, har bir so'zi haqiqat, or — nomus sohibi bu insonning harakatlari aslo tanazzulga uchramasligini mushohada qilgandi. Ishonganga gumon bilan qarash, sinalganni qayta sinash, aql va mantiq sohibi bo'lgan insonlarga xos emas edi. Ma'voli hayotning ilk sahifasi ochilgan edi, Abu Bakr qaytadan dunyoga kelgandi. Haqiqiy hayot, yashashga qadrlil umr mana shu onlardan boshlangandi⁶. Hazrati Abu Bakr (r.a.) ikki dunyo saodatiga etaklovchi bu mazmunli hayotida endi mulohazali ish boshlash vaqti kelganligiga amin bo'ldi va darhol shunga kirishdi. Uning nazarida Alloh taoloning Rasuli (s.a.v.)ga yelkadosh bo'lmoq kerak edi. Shu fikrda avvalo ishonchli kishilar bilan uchrashib chiqdi. Yangi dinni Rasululloh (s.a.v.)dan eshitganidek qilib ularga tushuntirdi. Bu bilan o'zini muvaffaqiyatga boshlayotgandi. Buning sabablaridan biri, uchrashgan barcha insonlari johiliyat davrining behuzur havosidan bezgan va najotkor kutayotganlar edi. Barchalarining qalbi islom diniga moyil, hidoyat nuri bilan yo'g'rilgan edi. Birozdan so'ng payg'ambarlar buyugi huzuriga yo'l olishdi. Yangi dinni Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan tingladilar va shahodat kalimalarini keltirib

⁶ Ahmad Lutfiy Qozonchi. Abu Bakr Siddiq (Rosulullohning g'ordagi birodari). "MOVOROUNNAHR". 2005. – 6-7 B.



musulmon bo'ldilar. Ular Usmon bin Affon, Abdurahmon bin Avf, Bilol bin Abu Raboh, Holid bin Said kabi islom Sharafi hisoblangan bir guruh kishilar bo'lib, hazrat Abu Bakr (r.a.)ning sharofati bilan iymon va islom doirasidan joy olgandilar. Rasululloh (s.a.v.)ni Masjidi Aqsoga qadar borib - kelganini, hatto samoga chiqarilgani va jannat - jahannamni ko'rsatilgani haqidagi xabarni darhol Abu Bakr (r.a.)ga etkazdilar. Boshqalar Abu Bakr (r.a.)ning iymoni endi nihoyalanaadi, deb o'ylardilar. Chunki, bunday voqeani inson zoti aqliga sig'dira olmaydi, deb hisoblardi ular. O'tirib hammasini gapirib berdilar.

— Bularni kimdan eshitdingiz? - dedilar, hazrat Abu Bakr (r.a.).

— Muhammad bin Abdullohning o'zidan eshitdik, deb javob berdilar.

— U holda to'g'ri. Men butun qalbim bilan Uning to'g'ri xabar berishiga ishonaman - dedilar.

— Shunaqa xabarga ham ishonasanmi, ey, Abu Bakr?.. Hech o'ylab ko'rmaysanmi?... -deb ajablandilar.

— O'ylaganim uchun ishonaman. Chunki men Uning hech qachon yolg'on gapirganini eshitmadim. Agar bularni U xabar bergan bo'lsa to'g'ridir, - deb qat'iy javob berdilar.

Hazrat Abu Bakr (r.a.)ning bu holda Payg'ambarimiz (s.a.v.)ni tasdiqlagani sabab bir laqabi bor edi. Shaxsan Payg'ambarimiz(s.a.v.) tarafidan unga Siddiq (to'g'ri, to'g'rini

tasdiqlovchi inson) deya nom berildi. Islom olami uni shundan so'ng «Abu Bakr Siddiq» (r.a.)

deya tanidi.

Dunyodan ne-ne nomdor hukmdorlar, fotihlar, sohibqironlar o'tdilar. Ular hayotlari davomida qancha-qancha ishlarni amalga oshirgandek bo'ldilar. Hatto ba'zilari yer yuzidagi mamlakatlarning juda katta qismini o'z qo'llari ostida birlashtirishga muvaffaq bo'laoldilar. Qancha-qancha qasrlar, saroylar, muhtasham imoratlar barpo qildilar. Kishilarni hanuz hayratga soluvchi mo'jizakor imoratlarini qurdirdilar. Dahshatlaridan o'z davrlarida olam titradi. Biroq, zamonlarning o'tishi bularning barchasini kishilar dilidan birin-ketin chiqarib tashladi. Hech birlari mana shunchalik boylikka, hashamga ega bo'lganligi bilan kishilar dilini o'zlariga rom qila olmadilar.

Shunday sog'lom qalb bilan payg'ambar ko'rsatmasini egallagan Abu Bakr kabi zot dunyoda hukmdorlik davrlarida adolatni asl mag'zini ko'rsata olishga muvaffaq bo'laoldilar. Hukmdorlik ko'zlarini pardalab, aqllarini hoyu-havas zanjiriga kishanlab qo'ya olmadi. Negaki, u janob payg'ambar ko'rsatmasini qalblariga to'g'ri



joylab olgandilar, Mana shu ko'rsatmadan na hukmdorlik davrlarida va na oddiy fuqarolik davrlarida chetga og'madilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Abu Bakr Siddiq. _T. : "Movarounnahr", 2005. – 122 B.
2. Ummataliyev. S. Ilk islom tarixidan oltin sahifalar. Ummaviylar davri. -T. : O'qituvchi, 2021. – 296 B.
3. Jaloliddin Suyutiy. (Tarjimon Abdulloh Shokirov). Tarix al-Xulafo. -T. : Sharq, 2020. – 472 B.
4. Islom ensiklopediyasi. -T. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
5. Hazrati Abu Bakr Siddiq. www.Islom.uz (veb sayti)
6. Roshid xalifalar davri : Abu Bakr Siddiq (r. a.). www.Old.muslim.uz (veb sayti).
7. Abu Bakr Siddiq. www.uz.wikipedia.org (veb sayti)
8. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
9. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
11. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
12. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
13. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
14. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
15. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
16. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
17. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

